

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI SHAKILLANTIRISH

Ziyadullayeva Setora¹

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

KEYWORDS

tinglab tushunish, metodik yondashuv, mashq turlari, audiomatn.

ABSTRACT

Maqolada tinglab tushunish ko'nikmasining ta'lim jarayonidagi o'rni, uni shakllantirishga doir metodik yondashuvlar. Tinglab tushunishning darajalari, mashq turlari va o'quvchilarda bu ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar keng yoritiladi. Maqolada olimlar tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar asosida tinglash malakasini shakllantirish bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15491883**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish: Tinglab tushunish ko'nikmasi zamonaviy ta'lim va hayotda nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Har qanday tilda samarali muloqot qilish uchun avvalo eshitilgan ma'lumotni to'g'ri anglay olish muhim bo'lib, bu ko'nikma gapirish, yozish va o'qish kabi boshqa til ko'nikmalarining shakllanishiga ham zamin yaratadi. Ayniqsa, til o'rganish jarayonida tinglab tushunish orqali o'quvchi og'zaki nutqni tushunish, talaffuzni to'g'ri o'zlashtirish, iboralarning tabiiy ishlatilishini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, dars jarayonida o'qituvchining tushuntirishlarini, videodars yoki audio materiallarni to'g'ri qabul qilish ta'lim sifatini oshiradi. Bugungi kunda esa audiokitoblar, podkastlar, videoma'ruzalar kabi zamonaviy axborot manbalaridan foydalanish aynan shu ko'nikmaga bog'liq. Shuningdek, professional hayotda tinglab tushunish orqali uchrashuvlar, telefon suhbatlari va topshiriqlarda aniqlikni saqlab qolish, samarali ishlash ta'minlanadi. Shu boisdan, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish har bir inson uchun muhim va zaruriy hisoblanadi. Tinglab tushunish — bu o'quvchining nutq, hikoya yoki audio matnni eshitib, mazmunini tushunishi, asosiy fikrlarini ajrata olishi va unga oid savollarga javob bera olishi demakdir. Bu qobiliyat nafaqat til o'rganishda, balki kundalik aloqada ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy ta'lim muhitida onlayn resurslar va audio-video materiallar keng tarqalgani sababli, tinglab tushunish bo'yicha metodlarni yangidan ko'rib chiqish zarurati

¹ Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 3-kurs talabasi

tug'iladi. Shuningdek, metakognitiv va sotsiokultural omillarni inobatga olgan holda, yanada moslashuvchan va individual talabalarga yo'naltirilgan yondoshuvlarni ishlab chiqish muhimdir [Brown H. D, 2001].

Bu borada olimlar Iroda Azimova matnni tinglab tushunish birmuncha murakkab hodisa ekanini ta'kidlaydi va uni 5 ta darajaga bo'ladi:

1. Assotsiativ daraja
2. Leksik-morfologik daraja
3. Kontekstual daraja
4. Struktural daraja
5. Matn darajasi

Ko'rinadiki, matn bir marta tinglanganda to'liq holatda tushunilmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilariga audiomatnni bir necha marta eshittirishi maqsadga muvofiq bo'ladi [I.Azimova,2019:87].

Tinglab tushunish ko'nikmasini egallash, Anderson va Linchning ta'kidlashicha, o'z o'rnida ko'plab ko'nikmalarni o'z ichiga oladi va ular yuzma-yuz suhbatda tinglash jarayonini tashkil etuvchi to'rt bosqichda bo'ladi:

1. Og'zaki signallarni atrofda to'lovchi orasidan ajratib, aniqlay olishi kerak.
2. Uzlaksiz nutq oqimini birliklarga bo'lishi va undagi so'zlarning ma'nosini tushuna olishi kerak.
3. Gapning sintaksisini tushunish va so'zlovchining maqsadini anglay olishi kerak.
4. Tilga oid bilimlaridan foydalanib, javob qaytara olishi kerak [Anderson va Linch, 2003].

Dars jarayonida tinglab tushunish malakasini shakllantirishda turli metodik yondashuvlar qo'llaniladi. Jumladan, o'quvchilarda tinglab tushunish qobiliyatini oshiruvchi mashq turlari — diktafon orqali eshittirish, savol-javobli audio topshiriqlar, matn asosida fikr bildirish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning e'tiborini jamlash va tushunganini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quvchilarda tinglab tushunish qobiliyatini oshiruvchi mashq turlari:

- ❖ Umumiy tushunish – matnning asosiy mazmunini, asosiy fikrini tushunish demakdir. Ya'ni, matnning har bir so'zini tushunmasangiz ham, umumiy nima haqida gap ketayotganini anglay olishingiz kerak. Audio matnning asosiy mavzusini, fikr yo'nalishini aniqlashga qaratilgan.
- ❖ Tafsilotlarni aniqlash – bu matndagi muhim aniq ma'lumotlarni eshitib, tushunib olish demakdir. Bu ko'nikma sizdan faqat umumiy fikrni emas, balki “kim?”, “qachon?”, “qayerda?”, “nima?”, “qanday?”, “nima uchun?” kabi savollarga javob topishni talab qiladi. Matndagi raqamlar, joylar, shaxslar, voqealar ketma-ketligi kabi faktik ma'lumotlarni eshitib topishga qaratilgan.
- ❖ O'ylangan ma'no – bu matnda to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, lekin ishtirokchilarning so'zlari, ohangi, vaziyat orqali xulosa chiqarish qobiliyatidir. Audiomatnda to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, biroq kontekst orqali anglasa bo'ladigan nozik jihatlarini tushunish.
- ❖ So'z boyligini aniqlash – Bu matnda ishlatilgan so'zlarning ma'nosini tushunish, sinonim, antonim, frazeologizm, yoki kontekstga ko'ra ma'no chiqarishni anglatadi. Bu ko'nikma tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Eshitilgan matnda yangi so'z

yoki iboralarni aniqlab, ularning ma'nosini kontekst asosida bilib olishni talab qiladi.

- ❖ Tuzilish va intonatsiya – Bu nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki gapning tuzilishi (ya'ni grammatik qurilishi) va intonatsiya orqali berilgan ma'noni tushunishdir. Bu ko'nikma sizga matndagi ohang, urg'u, talaffuzdagi o'zgarishlar orqali his-tuyg'ular, munosabat, niyatni anglashga yordam beradi [M. Rost, 2002].

Mazkur ilmiy-metodik adabiyotlar hamda xorij tajribasida tinglab tushunish ko'nikmasini o'rgatishga qaratilgan yondashuvlar bilan tanishgan holda tinglab tushunishga oid nazariy va amaliy bilimlarni sinflar kesimida tasniflab tinglab tushunishga oid tamoyillar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Tajriba Toshkent shahri 281- umumta'lim maktabining 7-sinfida jami 32 nafar o'quvchi ishtirokida o'tkazildi. O'quvchilarga tinglab tushunish kompetensiyasini baholovchi ikki turdagi audiomatnlar taqdim etildi:

- Hikoya audiomatni – obrazli, syujetli va hissiy badiiy matn.
- Axborot audiomatni – faktlar, statistika va aniq ma'lumotlarga asoslangan informativ matn.

Har bir audiomatndan so'ng o'quvchilarga maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar berildi. Tinglab tushunishni tekshirish uchun quyidagi metodik usullardan foydalanildi:

1. Test topshiriqlari (A/B/C shaklida)

– O'quvchilarga matn asosida 5 ta test savoli berildi. Ular eshitgan ma'lumotlarni tanlab ajratish orqali tanlovda ishtirok etdi. Bu usul axborot audiomatni uchun qo'llandi

2. Erkin javob shaklidagi savollar

– O'quvchilardan eshitgan hikoya asosida asosiy voqeani, qahramonning harakatlarini yoki sabab-oqibat bog'liqligini yozib berish so'raldi. Bu usul ularda mustaqil fikrlash va xotirani faollashtirishga xizmat qildi.

3. Tartiblash (sekvensiya) topshirig'i

– Hikoya audiomatni tinglatilgach, voqealar ketma-ketligini to'g'ri tartibda joylashtirish topshirig'i berildi. Bu usul mantiqiy tafakkurni va eshitganini tahlil qilish qobiliyatini tekshirishga xizmat qildi.

4. Asosiy g'oya va detallarni aniqlash topshirig'i

– O'quvchilardan matnning asosiy g'oyasini ajratib olish va muhim detallarni yozish talab qilindi. Bu orqali diqqatni jamlash va matnga asoslangan tahlil qilish qobiliyati o'rganildi.

Tajriba natijalari o'quvchilarning hikoya va axborot matnlarini qabul qilish darajasi o'rtasida farq borligini ko'rsatdi:

Hikoya audiomatni bo'yicha:

- ✓ 24 nafar o'quvchi (75%) test va yozma savollarga to'g'ri javob berdi.
- ✓ 20 nafar o'quvchi (62%) voqealar ketma-ketligini to'g'ri joylashtirdi.
- ✓ 28 nafar o'quvchi (87%) matnning asosiy g'oyasini aniqlay oldi.

Axborot audiomatni bo'yicha:

- ✓ 18 nafar o'quvchi (56%) test savollarida muvaffaqiyatga erishdi.
- ✓ 13 nafar o'quvchi (41%) muhim tafsilotlarni to'liq ajratib ko'rsata oldi.
- ✓ 10 nafar o'quvchi (31%) berilgan axborotni qisqacha qayta ifodaladi.

Xulosa.Tajribadan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar hikoya tarzidagi, syujetli va hissiy audiomatnlarni tinglab tushunishda nisbatan yuqori natijalar ko'rsatgan. Bu esa tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda badiiy matnlarning samarali vosita bo'lishini anglatadi. Axborot matnlar esa fakt va raqamlar asosida bo'lgani uchun, o'quvchilardan diqqat va mantiqiy tahlilni ko'proq talab etadi. Shu bois, har ikki turdagi audiomatnlar o'quvchilarning turli kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, mazkur tajriba shuni ko'rsatdiki, tinglab tushunish kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun:

- Matn turlarining xilma-xilligiga e'tibor qaratish,
- Tahliliy va ijodiy topshiriqlarni muvozanatli qo'llash,
- Intonatsiya, urg'u va grammatik tuzilmani tahlil qilishga asoslangan metodikalarni keng joriy etish lozim.

Tavsiya etilgan metodlar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda hikoya audiomatnlar yuqori samaradorlik ko'rsatgan bo'lsa-da, axborot audiomatnlarga doir ishlanmalarni chuqurlashtirish va mustahkamlovchi mashqlar tizimini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Anderson A., & Lynch T. Listening. Oxford University Press.2007
2. Azimova I. Nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Toshkent.: TDPU nashriyoti.2019
3. Brown H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach t.o Language Pedagogy. Longman.2001
4. Rost M. Teaching and Researching Listening. London: Longman.2002
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Pearson Education Limited.2007